

**THE SECONDARY MEANINGS OF INTERROGATIVE SENTENCES IN RHETORIC****Buzakhro M. Begmatova***Associate Professor, PhD in Law**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Email: buzahro73y@mail.ru**Uzbekistan, Tashkent***Hanifa H. Zayniddin***Postgraduate student**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Email: hanifa.zayniddin@gmail.com**Uzbekistan, Tashkent***ABOUT ARTICLE**

Key words: interrogative sentence, interrogative pronouns, confirmation and description, Ahmad Hashimi, “hamza” and ؟ particles, secondary meaning, encouragement, equivalence, assertion, improbability.

Received: 06.03.25**Accepted:** 08.03.25**Published:** 10.03.25

Abstract: This article provides a brief overview of the formation of interrogative sentences in Arabic, their grammatical features, and their various semantic interpretations in the field of rhetoric. The main focus is on the classification of interrogative sentences, which Ahmad Hashimi divides into three types: those requiring confirmation, those requiring description, and those aimed solely at verification. Additionally, secondary meanings of interrogative sentences, such as command, encouragement, equivalence, assertion, improbability, and mockery, are explained using examples from the Quran.

BALOG'AT ILMIDA SO'ROQ GAPLARNING IKKILAMCHI MA'NOLARI**Buzakhro M. Begmatova***Dotsent, Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Email: buzahro73y@mail.ru*

O'zbekiston, Toshkent

Hanifa H. Zayniddin

Magistratura talabasi

Arabshunoslik olyy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Email: hanifa.zayniddin@gmail.com

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar so'roq gap, so'roq olmoshlari, tasdiqlash va tasvirlash, Ahmad Hoshimiy, "hamza" va ﴿ yuklamalari, ikkilamchi ma'no, tashviq, tasviya, taqrir, istib'ad.

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida so'roq gaplarning shakllanishi, grammatik xususiyatlari va balog'at ilmida ularning turli ma'noviy talqinlari haqida qiqacha ma'lumot beradi. Asosiy e'tibor so'roq gaplarning tasnifiga qaratilib, ular Ahmad Hoshimiy tomonidan uch turga ajratilgan: tasdiqlash talab qiladigan, tasvirlash talab qiladigan va faqat tasdiqlashga yo'naltirilgan so'roq gaplar. Shuningdek, Qur'oni Karim oyatlaridan olingan dalillar orqali so'roq gaplarning ikkilamchi ma'nolari – buyruq, tashviq, tasviya, taqrir, istib'ad, masxaralash kabilar yoritilgan.

ВТОРИЧНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РИТОРИКЕ

Бузахро М. Бегматова

Доцент, доктор философии (PhD) в области права

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: buzahro73y@mail.ru

Узбекистан, Ташкент

Ханифа Х. Зайниддин

Магистрант

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: hanifa.zayniddin@gmail.com

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: вопросительное предложение, вопросительные местоимения, подтверждение и описание, Ахмад Хошимий, «хамза» и частица ﴿, вторичное значение, побуждение, равнозначность, утверждение, маловероятность.

Аннотация: В данной статье кратко рассматривается образование вопросительных предложений в арабском языке, их грамматические особенности и различные смысловые интерпретации в риторике. Основное внимание уделяется классификации вопросительных предложений, которую Ахмад Хошимий делит на три типа: требующие подтверждения, требующие описания и

направленные исключительно на проверку факта. Кроме того, вторичные значения вопросительных предложений, такие как приказ, побуждение, равнозначность, утверждение, маловероятность и насмешка, объясняются на примерах из Корана.

Kirish. Jumla va uning turlari, tarkibiy qismlarga ajralishi arab tili grammatikasida, ya’ni nahvda va balog‘at ilmining mao’niy bo‘limida turlicha yoritiladi. Masalan, arab tili grammatikasida jumla qanday so‘z turkumi bilan boshlanishiga qarab ikki turli bo‘ladi: ismiy jumla va fe’liy jumla. Ma’oniy ilmda esa gaplar, asosan, so‘zlovchining maqsadi va tinglovchining holatiga ko‘ra tasnif qilinadi. Nahvshunos olim Ahmad Hoshimiyl o‘zining balog‘at ilmiga bag‘ishlagan “Javahir ul-balag‘a” nomli asarida jumlan iikki turga bo‘ladi: jumla al-xabariy va jumla al-inshoiy. Inshoiy jumla 5 xil bo‘ladi: الأمر (اللهي buyruq), (so‘roq), (orzu-istik), اللداء (اللهي undov). Ushbu maqolada arab tili grammatikasida so‘roq gap hosil bo‘lish usullari va unda ishlatiladigan yuklamalar, hamda balog‘at ilmida so‘roq gapning uch turga bo‘linishi o‘rganildi. Bundan tashqari so‘roq gap balog‘at ilmida bildirishi mumkin bo‘lgan bir qancha ikkilamchi ma’nolar misollar bilan yoritildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Balog‘at ilmida gap turlari sharq nahvshunoslari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilganligini Ahmad Hoshimiyning “Javahir ul-balag‘a”, Hafni Nasif, Muhammad Diyab, Sulton Muhammad va Mustafo Tamumlar tomonidan yozilgan “Durus ul-balag‘a”, Abdulloh Iyd Sha’bonning “Tat’biq ul-balag‘a” asari, shuningdek, Mustafo G‘alayniyning “Jami’u durus ul-a’robiy” va boshqa bir qancha balog‘atga doir asarlarda batafsil yoritilganligi dalil bo‘la oladi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida xorijiy adabiyotlardan mavzuyimizga oid manbalar sanoqli bo‘lishiga qaramay Arab va Yevropa tilshunosligi bo‘yicha falsafa doktori Huseyn Abdulraufning “Arabic Rhetoric: A Pragmatic Analysis” (“Arab ritorikasi: pragmatik tahlil”) asarida jumlaning xabariy yoki inshoiyga bo‘linishidan ko‘ra ko‘proq musnad va musnad ilayhiga katta e’tibor qaratadi. O‘zbek arab tilshunoslari orasidan filologiya fanlari doktori, dotsent Salima Rustamiyning “Balog‘at ilmi” nomli o‘quv darsligida maoniy ilmida jumlaning xabariy va inshoiyga bo‘linishi haqida so‘z yuritilgan bo‘lsada inshoiy jumlalar, xususan, so‘roq gap anglatishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi ma’nolarga batafsil to‘xtab o‘tilmagan. Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular taqqoslash va tahlil asosida o‘rganildi.

Natijalar. So‘roq jumla orqali so‘zlovchi tinglovchidan o‘ziga noma’lum bo‘lgan narsa yoki voqeа-hodisa haqida ma’lumot olishni maqsad qiladi. Arab tili grammatikasida so‘roq gaplar quyidagi so‘roq so‘zlari (yuklamalari) orqali hosil qilinadi:

أ، هل، ما، متى، أيان، كيف، أين، ألى، كم، أي

Ahmad Hoshimi so‘roq gapni uch turga ajratadi (Hashimi, 2004, p. 78):

- a) Tasvirlash yoki tasdiqlash talab qilinadigan so‘roq gap bo‘lib, u أ (hamza) yordamida yasaladi;
- b) Faqat tasdiqlash talab etiladigan so‘roq gap bo‘lib, هل so‘roq yuklamasi orqali yasaladi;
- c) Faqat tasvirlash talab etiladigan so‘roq gap bo‘lib, أ (hamza) so‘roq olmoshlari orqali yasaladi;

Shu o‘rinda tasdiqlash (التصوّر) va tasvirlash (التصوّر) deyishdan nima maqsad qilinishiga izoh berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar berilgan savolga “ha” yoki “yo‘q” javobi talab etilsa, bu so‘roq gap hisoblanadi. Masalan,

هل أنت طالب؟ (Sen talabamisan?) Bu savolga faqatgina “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mumkin va shu sababdan u tasdiqlashni talab etuvchi so‘roq gap hisoblanadi.

so‘roq gapda esa, berilgan savolga aniqlik kiritilgan holda tasvirlash orqali javob berish talab etiladi. Misol uchun, biror kishi أ (Ahmad o‘qituvchimi yoki Saidmi?) deb so‘rasa, unga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mantiqsizlik bo‘ladi. Balki, savolda so‘ralgan ikki kishidan birini tanlash orqali (Ahmad yoki Said) yoki boshqa inson ismini aytish bilan aniqlik kiritish to‘g‘ri javob sifatida olinadi.

E’tiborli yana bir jihat shuki, balog‘at ilmidan farqli ravishda hozirgi zamonaviy arab tili grammatikasida so‘roq gap أ (hamza) bilan ham, so‘roq yuklamasi orqali ham yasalishi mumkin va ular o‘rtasida hech qanday ma’noviy farq sezilmaydi:

- أنت طالب؟ (Sen talabamisan?)
- هل أنت طالب؟ (Sen talabamisan?)

Bundan tashqari bu ikki so‘roq yuklamasidagi nozik nuqtaga e’tiborimizni qaratsak, hozirgi kelasi zamon fe’lidan oldin أ (hamza) yuklamasi kelsa, gapdan anglashilgan ma’no aynan hozirgi zamonga, هل yuklamasi kelsa esa, kelasi zamonga dalolat qiladi:

- أنسافر إلى طشقند؟ (Toshkentga ketyapsanmi?)
- هل تساور إلى طشقند؟ (Toshkentga borasanmi?)

أ (hamza) so‘roq yuklamasi orqali yasalgan so‘roq gap balog‘atshunos olimlar tomonidan kuzatilganda ismiy jumлага nisbatan fe’liy jumlada ko‘proq qo‘llanilar ekan. Odatda, tasdiqni talab qiluvchi so‘roq gapda أ (yoki) yuklamasi ishlatilmaydi. Chunki tanlov berish orqali tasvirlashni talab qilish va shu orqali أ (yoki) yuklamasini ishlatish so‘roq gapiga xos jihat hisoblanadi. Shunga qaramasdan, arab klassik asarlarida أ (yoki) yuklamasi qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ammo, uning ma’nosi “yoki” emas, “balki”ga o‘zgaradi (Hashimi, 2004, p. 79):

أموتي ناءٌ أَمْ هُوَ الْآنِ وَاقِعٌ
ولسْتُ أَبَا لِي بَعْدَ فَقْدِي مَالِكًا

Malikni yoqotganidan so‘ng menga endi baribir,

O‘limim uzoqmi, (yo‘q) balki u hozir sodir bo‘lyapti.

Quyida berilgan baytning ikkinchi misrasiga e’tibor beraylik:

أموتي ناءٌ أَمْ هُوَ الْآنِ وَاقِعٌ

U أ (hamza) so‘roq yuklamasi yordamida yasalgan so‘roq gap hisoblanadi va أ (yoki) yuklamasi ishlatilib, jumla davom ettirilgan. Bir qarashda uning gapidan shunday ma’no anglashilishi mumkin: (O‘limim uzoqmi yoki hozir sodir bo‘lyaptimi?) Ammo aytib o‘tganimizdek, أَمْ bu yerda بَلْ (balki) ma’nosida kelib, undan oldin berilgan savolga javob tariqasida keladi. Shoir avval o‘ziga savol bermoqda: أموتي ناءٌ (O‘limim uzoqmi?) va uning ketidan esa o‘zi shu savolga أَمْ هُوَ الْآنِ وَاقِعٌ (yo‘q, balki u hozir sodir bo‘lyapti) deya javob bermoqda.

Yana boshqa bir marsiyada shu holat kuzatilishini ko‘rishimiz mumkin:

هُلْ يَسْمَعُ اللَّّٰهُرُ إِنْ نَادَيْنَاهُ أَمْ كَيْفَ يَسْمَعُ مِنْ لَا يُطْقَى

Men An-Nazrni chaqirmsam, u eshitarmu?

Balki, gapira olmaydigan o‘lik qanday eshitsin?

Faqatgina tasvirlash talab etiladigan so‘roq gaplar so‘roq olmoshlari orqali yasalishi yuqorida ma’lum bo‘ldi. Endi ularning har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tsak:

من so‘roq olmoshi oqil, ya’ni shaxslarga nisbatan ishlatilsa, ما olmoshi g‘ayri oqil – hayvon va predmetlarga nisbatan qo‘llaniladi. أَيَّانَ va مَتَى larning ikkisi ham qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, lekin ular o‘rtasida ma’noviy farq mavjud. Bu farq shundan iboratki, so‘roq olmoshi har qaysi zamonga ham dalolat qilishi mumkin, ammo, أَيَّانَ faqatgina kelasi zamonga nisbatan ishlatiladi (Hashimi, 2004, p. 82). Bundan tashqari, unda bo‘rttirish, qo‘rkitish (الْتَّهْوِيلُ) va mubolag‘a (التَّفْخِيمُ) ma’nolari ko‘zda tutiladi. أَيَّانَ olmoshining bu tarzda ishlatilishi Qur’oni Karimda bir necha bor uchraydi va u mushriklar qiyomat kuni haqida so‘ragan savollarida o‘z aksini topadi:

يَسْتَأْلُونَ أَيَّانَ يَوْمَ الْدِينِ ﴿51:12﴾

Ular: hisob-kitob kuni qachon, deb so‘rarlar (Muhammad Yusuf, 2020, p.588).

أَيَّيْ so‘roq olmoshining ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. U qanday? (كيف), qayerdan? (من أين) qachon? (متى) so‘roq olmoshlarining ta’kid va kuchaytiruv ma’nolarida ishlatilishi mumkin. Misol uchun, kishi o‘z hayratini bildirish uchun (من أين) (qayerdan?) olmoshi bilan emas, balki أَيَّى bilan savol bersa, uning taajjubi tinglovchi uchun ham ravshan bo‘ladi:

يَا مُحَمَّدُ أَيَّى لَكَ هَذِهِ مَوْهِيَّةٌ؟ - Ey Muhammad, qayerdan senda bu iqtidor?

So‘roq gapning birlamchi ma’nosi kishining o‘zi bilmagan biror narsa haqida ma’lumot olishi maqsad qilib olinishi bo‘lsa, uning ikkilamchi ma’nolari quyidagilardan iborat:

I. Buyruq. Ba’zida o‘zaro muloqot jarayonida bir ishni qilmaslikka chaqirish, undash va buyruq berish maqsadida gapni so‘roq shaklida tuzish mumkin:

﴿هُلْ سَتَسْتَمِرُ فِي تَنَاهُلِ الطَّعَامِ الْمُحْرَمِ؟﴾ (Taqiqlangan taomlarni eyishni davom ettirasizmi?)

Bu yerda savol berishdan maqsad rostdan ham kishining harom luqmani yeishda davom etishini bilish emas, balki shu ishda davom ettirmaslikka chaqirishdir: ﴿فَعَنْ تَنَاهُلِ الطَّعَامِ الْمُحْرَمِ﴾ (Harom taom yeishdan to‘xta!)

II. Tasviya. (التسوية). Bu terminning o‘zbek tiliga mos muqobili bo‘limganligi uchun sharh orqali tushuntirishga harakat qilamiz. “التسوية” lug‘atda “tenglashtirmoq”, “bir xil qilmoq” degan ma’nolarni beradi. Istilohda esa “ikki ish-harakatning ikkisi ham bir xil ekanligi, unisi bajarilsa ham, bunisi bajarilsa ham natija bir bo‘lishi” nazarda tutiladi. O‘zbek xalq maqollaridan “Yomonga gapirsang – bir balo, gapirmsang – ikki balo” maqoli ma’no jihatidan tasviyaga yaqinroq kelishi mumkin. Bunga yorqin misolni Qur’oni Karimning “Yasin” surasi 10-oyatida ko‘rshimiz mumkin:

﴿وَسَوْءَاءٌ عَلَيْهِمْ أَنْذَرْتَهُمْ أَمْ لَمْ تُذَرْهُمْ لَا يُؤْمِنُونَ﴾

Ularni ogohlantirsang ham, ogohlantirmasang ham, ular uchun baribir, iymonga kelmaslar. (Muhammad Yusuf, 2020, p.76)

Yuqoridagi oyati karima tarjimasida savol shakli o‘z ko‘rinishini yo‘qotgan bo‘lsa ham, aslida jumla ا (hamza) so‘roq olmoshi yordamida tuzilganligiga guvoh bo‘lamiz.

III. Tashviq شُوَق (التسويق) so‘zi fe’lining masdari hisoblanib, “insonda qiziqish uyg‘otish” ma’nosini bildiradi. Masalan,

﴿هُلْ أَدْلُكَ عَلَى تِجَارَةِ الْأَفْضَلِ الَّتِي سَتُحَقِّقُ لَكَ النَّجَاحُ؟﴾ (Sizga muvaffaqiyat keltiradigan eng yaxshi tijoratga yol ko‘rsataymi?) jumlasida so‘zlovchining asosiy maqsadi uni tinglayotgan insonni qiziqtirish va ko‘zda tutilgan narsaga jalb qilishdan iborat. Bunday so‘roq gaplar savdo-sotiq jarayonida iste’molchilarни jalb qilish maqsadida keng qo‘llaniladi.

IV. Taqrir فَرْز (التَّفَرِير) lining masdari bo‘lmish bu so‘z “qaror”, “qat’iy qaror qabul qilish” ma’nolarini anglatadi. Gap tuzilishi jihatidan so‘roq shaklida bo‘lishiga qaramay, u beradigan ma’no قَدْ، لَقَدْ ta’kid yuklamalari yordamida yasalgan jumla ma’nosiga tenglashadi. Ba’zan, savol berish orqali kishi o‘zi bilmagan narsani so‘rash maqsadi emas, balki so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham ma’lum bo‘lgan fakti qayta eslatish maqsadi ko‘zda tutilishi mumkin. So‘roq gapning bunday ma’noda ishlatilishi Qur’oni Karimning bir necha oyati karimalarida ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Shulardan biri “Al-Balad” surasining 7-8-oyatlarida keladi:

﴿أَيْحَسْبُ أَنَّ لَمْ يَرَهُ أَحَدٌ ۚ ۗ لَمْ نَجْعَلْ لَهُ عَيْنَيْنِ﴾

7.U inson uni birov ko‘rmadi, deb o‘ylaydimi?

8. Biz unga ikki ko‘zni bermadikmi? (Muhammad Yusuf, 2020, p.476-477)

7-8-oyatlarda berilgan savol “taqrir” ma’nosiga to‘laqonli mos tushadi va ushbu oyati karimalardada berilgan savol aslida “Uni har doim kuzatib turuvchi Alloh bor-ku”, “Axir biz unga ikki ko‘zni berdik-ku!” kabi ma’nolarda tushuniladi.

V. Istib’ad (الإِسْتِبَادَة). Bunda biror ish-harakatning amalga oshishi imkonsiz yoki dargumon bo‘lganligi sababidan, shubha bilan savol berish ma’nosini tushuniladi. Masalan, boylik istagan faqir kishi shunday nido qilishi mumkin: أَنَّى يَكُونُ لِي مَا نَعْلَمُ؟ (Sulaymon mulki menda qayda bo‘lsin?)

VI. Masxaralash (النَّهْكَمَةُ). Bir insonni kamsitish maqsadida so‘roq gap ishlatilishi mumkin:

أَعْقَلُكَ يُسَوِّغُ لَكَ أَنْ تَقْعُلَ كَذَا؟ (Aqling seni shunday qilishga yo‘l qo‘ydimi?)

Jumlada keltirilgan savol orqali bir insonni yerga urib, uni kaltafahm deya masxaralash asosiy maqsad qilib olinganligi kontekst orqali tinglovchiga ayon bo‘ladi.

Bundan tashqari, so‘roq gaplar qo‘rqitish, tahdid qilish, tanbeh berish, tahqirlash, istehzo qilish, kinoya, tushunishga harakat qilish (الإِسْتِبْطَاطُ), afsus-nadomat kabi ikkinamchi ma’nolarni ham bildirishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, arab tilida so‘roq gaplar nafaqat axborot olish vositasi, balki muayyan uslubiy va emotsiyal ta’sir ko‘rsatish uchun ham ishlatilishi aniqlangan. Zamonaviy arab tili grammatikasida هـ va أـ (hamza) yuklamalarining tasdiqlash uchun ishlatilishi o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, klassik adabiyot va Qur’oni Karim matnlarida ularning ma’no nozikliklari muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu maqola arab tili grammatika va balog‘atshunosligi nuqtayi nazaridan so‘roq gaplarning semantik tahlilini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda ularning keng ko‘lamli ma’no ifodalash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatova, B. M. (2013). Arabic language. Arab tili (for 2nd-3rd year philology students). Tashkent: ToshDSHI. – 178 p. (in Uzbek)
2. Ibrohimov, N., & Yusupov, M. (2009). Arabic grammar. Arab tili grammatikasi (Vol. I). Namangan: Ibrat. – 215 p. (in Uzbek)
3. Mamajonov, Z. (2005). On the classification of poetic arts. Uzbek Language and Literature. Sheriy sanatlarni tasniflash masalasiga doir. Tashkent: Zilol Buloq. – 96 p.
4. Nosirova, M. (2011). Arabic stylistics. Arab tili stilistikasi. Tashkent: TDSHI. – 105 p. (in Uzbek)
5. Rustamiy, S. (2020). The science of rhetoric. Balogat ilmi. Tashkent: Zilol Buloq. – 78 p. (in Uzbek)

6. Abdul-Raof, H. (2006). Arabic rhetoric: A pragmatic analysis. Routledge. – 291 p.
7. Bayyinah Institute. (2022). Balaaghah Intensive: An Introduction to Ilm al-Ma‘ani. – 115 p.
8. Hashimi, A. (2004). Jewels of meanings, rhetoric, and eloquence. Jawahir ul-balagha fil ma’aniy val-bayaan val-badii’. Beirut, Lebanon. – 109 p. (in Arabic)
9. The Holy Qur'an. Qur'an ul-karim. (2022). Dar al-Hilal. Tashkent. – 603 p. (in Arabic)
10. Muhammad Yusuf, S. M. (2020). Interpretation of the Crescent. Tafsiri Hilol. Tashkent: Hilol Nashriyoti.
11. Jaarim, A., & Amin, M. (1999). Clear Rhetoric: Eloquence, Meaning, and Rhetoric. Al-balagha al-wadigha. Al-bayaan. Al-ma’ani. Al-badii’. Cairo. – 227 p. (in Arabic)